

ZAMONAVIY TELEVIDENIENING INTERAKTIV KONTENT MASALASI

Yulduz Akmalovna ARTIKOVA

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiya universiteti
Teleradio va xalqaro jurnalistika kafedrası,
Toshkent, O'zbekiston

ПРОБЛЕМА ИНТЕРАКТИВНОГО КОНТЕНТА СОВРЕМЕННОГО ТЕЛЕВИДЕНИЯ

Юлдуз Акмаловна АРТЫКОВА

Кандидат филологических наук, доцент
Кафедра телерадио и международной журналистики
Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана
Ташкент, Узбекистан

THE ISSUE OF INTERACTIVE CONTENT OF MODERN TELEVISION

Yulduz Akmalovna ARTIKOVA

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor
Department of Television and Radio and International Journalism
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan ortiqovayulduz@gmail.com.

UDC (UO'K, УДК): 654.197

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Artikova Y.A. Zamonaviy televideniening interaktiv kontent masalasi. // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 1 (42). — B. 127-137.

<https://doi.org/10.36078/1649679716>

Received: December 24, 2021

Accepted: February 17, 2022

Published: February 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc.

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy interaktiv telejurnalistikaning o'ziga xosligi masalasi ko'rib chiqildi. Bu borada yetakchi olimlarning qarashlari asosida kuzatuvlar keltirildi. Bugungi kunda interaktiv jarayonlar bevosita efirdan so'ng ham davom etib, ijtimoiy ahamiyat kasb etar ekan, interaktivlikka asoslangan dasturlar jahon tajribasida turli yo'nalishlarda rivojlanmoqda. Izlanishda Rossiya, AQSh, Turkiya, Koreya jurnalistlari tomonidan tayyorlangan mashhur interaktiv tok-shoular mediadiskurs kesimida tahlil qilinadi. Shu bilan birga zamonaviy interaktiv kontentning keng miqyosda rivojlanishini belgilovchi omillaridan biri sifatida jonli efirda loyiha tayyorlashning kamharjligi hamda auditoriyani o'ziga jalb qilish omillari maqolada batafsil yoritildi. Mavzuning dolzarbligi sifatida axborot zamonida auditoriya ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotga ko'p vaqtni sarflab, muloqot ijtimoiy hayotning ajralmas qismiga aylanganani bois, televidenie asosan kommunikasiyaga asoslangan dasturlari bilan tomoshabinlarni o'ziga jalb qilayotganligini ta'kidlash kerak. Shuningdek, izlanishda interaktiv teledasturlardagi ishtiroki orqali auditoriya vakillari axborot tayyorlash, tarqatishda faol individga aylanganayotganligiga alohida to'xtalib o'tildi. Tadqiqotning asosiy mavzusi zamonaviy telejurnalistikadagi interaktiv kontent masalasi ilmiy nazariy qarashlar va amaliy misollar yordamida ochib berildi. Jahon tajribasi misolida interaktiv telekontent bo'yicha ilmiy xulosalar qilindi.

Kalit so'zlar: So'z erkinligi; auditoriya; interaktivlik; televideniy kontent; interaktiv televidenie; kommunikasiya; tomoshabin;

zamonaviy televidenie; muloqot; efir; tok-shou; auditoriya; jurnalist.

Аннотация. В данной статье рассматривается специфика современной интерактивной тележурналистики. Наблюдения сделаны на основе взглядов ведущих ученых. На сегодняшний день интерактивные процессы приобретают социальную значимость. В мире программы, основанные на интерактивности, развиваются в разных направлениях. В исследовании проанализированы популярные интерактивные ток-шоу, подготовленные журналистами из России, США, Турции и Кореи. При этом одним из факторов, определяющих масштабную разработку современного интерактивного контента, является низкая стоимость разработки проекта в прямом эфире и факторы, привлекающие аудиторию. В качестве актуального вопроса следует отметить, что на сегодняшний день аудитория проводит много времени в социальных сетях, общение стало неотъемлемой частью общественной жизни — телевидение привлекает зрителей в основном программами, основанными на коммуникации. Также было отмечено, что посредством участия в интерактивных телевизионных программах аудитория становится активной в подготовке и распространении информации. Основной темой исследования является проблема интерактивного контента в современной тележурналистике, которая раскрывается с использованием научно-теоретических взглядов и практических примеров. В статье сделаны выводы об интерактивном телеконтенте на примере мирового опыта.

Ключевые слова: свобода слова; аудитория; интерактивность; телеконтент; интерактивное телевидение; общение; аудитория; современное телевидение; общение; эфир; ток-шоу; аудитория; журналист.

Abstract. This article discusses the specifics of modern interactive television journalism. Observations are made based on the views of leading scientists in this regard. Today, while interactive processes continue after live broadcast and acquire social significance, interactivity-based programs are evolving in different directions in the world experience. The study will analyze popular interactive talk shows prepared by journalists from Russia, the United States, Turkey and Korea in the media discourse section. At the same time, one of the factors determining the large-scale development of modern interactive content is the low cost of preparing a project on live broadcast and the factors of attracting the audience. As a topical issue, it should be noted that in the information age, the audience spends a lot of time on communication on social networks, and communication has become an integral part of social life - television mainly attracts viewers with its communication-based programs. It was also noted that through participation in interactive television programs, the audience is becoming an active individual in the preparation and dissemination of information. The main topic of the research is the issue of interactive content in modern television journalism, which is revealed using scientific theoretical views and practical examples. The article draws scientific conclusions on interactive telecontent on the example of world experience.

Keyword: Freedom of speech; audience; interactivity; television content; interactive television; communication; audience; modern television; communication; broadcast; talk show; audience; journalist.

Kirish qism. Jamiyatda soʻz erkinligini taʼminlash, oshkoralik va ochiqlik nuqtayi nazaridan raqamli muhitning ommalashuvi muhim qadam boʻldi. Foydalanuvchilarning bevosita ishtiroki, ularning hammuallifligini nazarda tutadigan medianing bu koʻrinishi Interaktivlikning axborot almashinuvidagi ahamiyatini oshirdi. Yurtimizning radiojurnalistika boʻyicha etakchi mutaxassisi K. F. Ismailova Interaktivlikning oʻziga xos xususiyatlari borasida oʻz qarashlarini quyidagicha ifoda etadi: “muloqotning interaktiv modeli va shaxslararo model oʻrtasidagi asosiy farq bu baʼzi texnik vositalar (kompyuter, mobil, sunʼiy yoʻldosh aloqasi va boshqalar) tomonidan taʼminlangan va nazariy jihatdan global qamroviga kengaytirilishi mumkin boʻlgan aloqa doirasidir” (2, 117) bu jarayonda auditoriya raqamli muhitda faollashib, jamiyatda sodir boʻlayotgan voqea-hodisalarga nisbatan oʻz munosabatini erkin ifodalaydi. Oʻtgan asr oxirlarida qator tadqiqotchilar qatori amerikalik olim Rassel Noyman ham shu mavzuda tahlillar olib borgan: “yangi media gʻoyasida interaktivlik muhim xususiyat kasb etadi. Bundan 30 yillar avval yangi mediani foydalanuvchi va axborot orasidagi interaktivlikni taʼminlovchi kommunikasion texnologiya sifatida aniqlashtirishdi” (5) shu tarzda kompyuter texnologiya bilan televideniening uygʻunligidagi interaktiv televidenie yoʻnalishi taraqqiy etdi. Interaktiv televideniya tomoshabinlar raqamli muhitning barcha imkoniyatlaridan televizion industriya kesimida foydalanishni boshladilar. Bunda TV dasturlarida televizion kontentga bevosita oʻz taʼsirini oʻtkazish qatorida loyihaning istalgan joyidan, xohlagan vaqtda tomosha qilish kabi videoforamtadagi qulayliklar bilan birga foydalanuvchiga haridlarni amalga oshirish kabi on-layn media muhitidagi xizmatlar ham koʻrsatila boshladi. Yaʼni, bu hodisa kompyuter texnologiyasi bilan televideniening uygʻunligidagi interaktiv televidenie uchun xosdir. ITV yoki ITV shaklda ifodalanadigan interaktiv televideniening oʻtgan asr oxirlarida Internet televidenie, interaktiv televidenie, shaxsiy televidenie kabi turli koʻrinishlari ham vujudga keldi. Baʼzi mutaxassislar “interaktiv televidenie” atamasini foydalanuvchilar uchun yaratgan imkoniyatlaridan kelib chiqib “auditoriyaga moslashadigan televidenie” shaklida ishlatishni nazarda tutishdi.

Ammo bugungi kunda aksariyat televidenie boʻyicha mutaxassislar tomonidan interaktiv televidenie atamasini — texnik xususiyatga koʻra emas, balki televideniya dagi kommunikativ qaytariqli aloqaga asoslangan oʻzaro taʼsir jarayonlari kuzatiladigan loyihalarga nisbatan qoʻllanilib kelinyapti. “Bugungi kunda mutaxassislar televizion kontent yaratishda turli shaklda televizion auditoriyaning ishtirok etishini nazarda tutishiga nisbatan “interaktiv televidenie” atamasini ishlatishmoqda. Telekommunikator bilan teletomoshabin oʻrtasidagi oʻzaro taʼsirning yangi koʻrinishi shakllanib, kommunikasiya ishtirokchilarining ikki tomonlama muloqoti televizion kontentga taʼsir qiladi. Yangi koʻrinishdagi muloqot dialogik va interaktivdir” (4).

Asosiy qism. Interaktiv televideniening oʻziga xos xususiyatlariga - jurnalist mualliflar bilan birga tomoshabinlarning oʻzi yaratgan videomateriallarning uygʻunligidagi efir mahsulotini yaratishni kiritish mumkin. Bunda auditoriya vakili boʻlgan tomoshabin jurnalistga hammuallif boʻladi. Interaktivlikning muhim xususiyati sifatida auditoriya vakilining axborot isteʼmolchiligidan - axborot yaratuvchisi maqomiga koʻtarilishini taʼkidlash mumkin. U efir orqali oʻzi yaratgan videomaterialini tomosha qiladi. “Bugungi kunda havaskor va professionallar materiallarining uygʻunligida telekontent yaratish tendentsiyasi mavjud. Masalan, AQShdagi “Current TV” telekanaliga

tomoshabinlar o'zlari tayyorlagan videomaterialni yuborishadi. Tahririyatga kelgan havaskor videolarni teleboshlovchilar sharhlab, ko'rsatuv shaklida efirga berishadi. Rossiyaning "Dojd" telekanalida esa, tomoshabinlar yuborgan videomaterialni tahririyat illyustrativ ma'lumot sifatida ko'rsatuv tayyorlashda foydalanishadi" (4) o'zaro fikr almashishga asoslangan interaktiv televideniya teleefir muallif, boshlovchi, jurnalist kabi professionallar qatori istalgan tomoshabin uchun o'z so'zini aytish, fikrini bildirish, o'zi haqida xikoya qilish imkoniyatini beradi. Auditoriya vakilini interaktiv jarayon tufayli muallifga tenglashtirilishi fuqarolik jurnalistikasi ko'rinishi sifatida jamiyatning demokratlashuvida muhim qadam bo'ladi. Chunki bu vaziyatda OAV propaganda vositasi sifatida faoliyat ko'rsatmay, auditoriya vakili uchun ommaviy minbarga aylanadi. Radiodagi interaktiv dasturlarda tomoshabin ko'rsatuvda bevosita o'zi ishtirok etadi, kommunikativ vosita sifatida bunda ovoz, ohang, temp, ritm, intonasiya, shovqin kabi nutq komponentlari muhim rol o'ynaydi. Interaktiv teledasturlarda ham tomoshabin studiyadagi loyihada bevosita o'zi ishtirok etishi, telefon qo'ng'iroq orqali ulanishi yoki ijtimoiy tarmoqlarda fikr bildirish orqali telekontentga ta'sir qilishi mumkin. Bevosita tomoshabinlar yaratgan videomaterial asosida dastur tayyorlashda esa, auditoriya vakili o'zi yaratgan audiovizual material orqali loyihada ishtirok etadi. Bunda interaktiv kommunikasiyaning muloqot shakli - audiovizual kontent shaklida bo'ladi. Chunki tomoshabin yuborilgan videoda o'zi qatnashmasligi mumkin, ammo yaratgan axborot materiali orqali o'z fikrini, munosabatini, qarashlarini ifoda etishi mumkin. Bunda audiovizual material interaktiv muloqot vositasiga aylanadi.

Ahamiyatli jihati teleloyihalar yaratilguncha va jonli efir paytida ekranda aks etadigan interaktivlik bilan birga ko'rsatuv efirga ketganidan keyin ham o'zaro ta'sir qilish jarayonlari davom etadi. Auditoriya bilan kommunikasiya teleloyihalar mavzusi, yo'nalishiga ta'sir qilishi bilan birga efirdan keyingi onlayn muhokamalar mavzuning ijtimoiylashuvi, uning jamiyatdagi keyingi aksiga ham ta'sir o'tkazadi. Bu jarayonning negizida ijod falsafasi mujassam bo'lib, soha mutaxassislari tomonidan keng tadqiq etilgan. "Kelajakda amalga oshadigan ishlarimizni rejalarini tuzib, vazifalarimizni yozib borib, qadamma-qadam hayot yo'limizni bosib o'tganimizda ijod qilamiz. Bu jarayon muallifdan — foydalanuvchiga, o'quvchiga, tomoshabinga, tinglovchiga o'tib boradi... Ijod bu — boshlanishi va yakuni bo'lmagan jarayondir. Ijodiy jarayon hech qachon tugamaydi. Uning yakuniy nuqtasi bo'lmaydi. U abadulabad davom etadigan harakatdir" (3, 21) bu g'oyaga ko'ra, ijod jarayonlari asar yaratilganda tugamay, undan muxlislar bahramand bo'lganida ham davom etaveradi. Bu g'oyani amerikalik shoir Uolt Uitmen (1819–1892) ham tasdiqlaydi. Uning fikricha — ijodiy jarayonning natijasi, ya'ni san'at asari — shunchaki musiqa yoki san'at asari bo'lmay — tomoshabin, muxlis, tinglovchi bilan o'zaro ta'sir qilish jarayoni bo'lib davom etadi. "Bir insonning ijodiy ruhiyati boshqalarning ijodiy jarayonini rivojlantiradi /.../ Ijodiy loyiha sharoitdan kelib chiqib paydo bo'ladi. Bir maqsadda paydo bo'lgan ijodiy ish — umuman boshqa yo'nalishni olishi mumkin. Bitta ijodiy ishdan boshqasi paydo bo'lib, ularning ikkalasi o'zaro ta'sir qiladi" (3, 21) muallifning g'oyalari uning materiali orqali keng auditoriyaga ta'sir qiladi, axborotda ko'tarilgan mavzu foydalanuvchilar munosabatlarida o'z aks-sadosini topadi. Telejurnalistikadagi interaktiv dasturlarda ham ana shunday davomli ijodiy jarayon, o'zaro ta'sir qilish holatlari kuzatilishi bilan ahamiyatlidir. Materialning ta'sirchanligi, mavzuning dolzarbligi ko'tarilgan mavzuning auditoriyaga qanday ta'sir qilganligi bilan

o'lanishi bilan ahamiyati kattadir. Zamonaviy televideniening interaktiv kontenti teleefirdagi ijtimoiy kommunikasiyaning ana shunday o'zaro ta'sirlanish jarayoni bilan kechishi bilan o'tgan asrda televidenie va Internet sintezida keng qo'llanila boshlagan ITV, ya'ni interaktiv televideniedan farqlanadi. Bugungi kunda televideniedagi interaktiv kontentda muallifning g'oyasi asosida tashkil etilgan har bir loyiha — efirdan keyin o'zining mustaqil hayotiga ega bo'ladi. Ko'rsatuvda auditoriya fikr bildirib, mavzuni kutilmagan tomonga o'zgarishiga zamin hozirlashi mumkin. Tomoshabin telefon qo'ng'iroq qilib, Internet orqali savol yo'llab mutaxassislardan o'zlariga qiziqtirgan savollarga javob olishi tabiiy holatdir.

Rivojlangan davlatlarda jonli efirda uzatiladigan tok-shoular asosan bir necha yo'nalishlarda tayyorlanadi. Masalan, Rossiyaning telekanallarida efirga ketadigan “Время покажет” (6) tok-shousini siyosiy — tahliliy yo'nalishdagi sharhlovchilikka asoslangan loyihalar qatoriga kiritish mumkin. Ikki boshlovchi tomonidan shu kunning dolzarb siyosiy voqealari erkin so'zlashuv uslubida bahs va munozaralarga boy shaklda tahlil qilinadi. Studiyada auditoriya qatnashamsa ham, tomoshabinlar berilgan telefon raqamlariga ulanib savollarini berish imkoniyati mavjud. “Право знать”, “Вечер с Владимиром Соловьевым” kabi siyosiy tahliliy ko'rsatuvlar ham rossiyalik tomoshabinlarga siyosiy jarayonlar borasida turli qarashlarni taqdim etadi. Yurtimiz telekanallarida efirga beriladigan ijtimoiy-siyosiy mavzudagi “munosabat”, “xalqaro press — klub” kabi tok-shoular bilan yuqorida sanab o'tilgan rossiyalik ijodkorlar tayyorlagan ko'rsatuvlar — studiyadagi umumiy vizual ko'rinishi, mavzuning jiddiy yoritilishi kabi xususiyatlar bilan o'xshashdir. Masalan, studiyada to'q ko'k rangning ustunlik qilishi, studiyaga taklif etilgan mutaxassislar turgan holatda bahslashishlari tasvirga olinishi, studiya orqa fonida monitorlarning mavjudligi kabi tasviriy unsurlarda o'xshashlikni payqash mumkin. Sobiq Sovet tuzumi davrida televizion propaganda vositasi sifatida shakllangan siyosiy sharhlovchilik maktabi Rossiya telejurnalistikasi bilan o'zbek telejurnalistikasidagi o'xshashlikning asosini tashkil qiladi. Qiyosiy tahlil uchun mediabiznes asosida rivojlanayotgan bir qator siyosiy sharhlovchilikka qaratilgan horijda efirga ketadigan interaktiv tok — shoularni olaylik. Amerikalik komik aktyor boshlovchilardan Ellen Dejenerisning “Ellen Shou” (7), Trevor Noy olib boradigan “Deyli Shou” (8), Jimmi Fellon (9) boshchiligidagi tunggi shoular shular jumlasidandir. Mazkur interaktiv teleloiyhalarda studiyada auditoriya vakillari, tomoshabinlar ishtirok etadi. Ularning bo'layotgan voqea, suhbatlarga rektsiyasi ham tabiiy. Studiyaga mehmon sifatida taniqli insonlar qatorida mashhur siyosatchilar taklif etiladilar. Siyosiy mavzular erkin, oddiy tomoshabin ruhiyatiga yaqin shaklda olib boriladi. Ko'proq satira va yumor yo'nalishlarida siyosiy jarayonlarga baholar beriladi. Tomoshabinlarga siyosiy arboblarning o'zlarining yaqin insoni sifatida taqdim etiladi. Ko'rsatuvlar jiddiylardan nari, oddiy tomoshabin ruhiyatiga yaqin shaklda boshlovchi aktyorlar tomonidan olib boriladi. Aksar boshlovchilar yumorist aktyorlar bo'lib, ular siyosiy mavzudagi dasturlarda ham studiyada bemalol harakatlanishadi, raqsga tushishadi, studiya mehmonlari bilan oddiy va samimiy suhbat qurishadi. Mediabiznes sharoitida OAVning asosiy maqsadi reytingini oshirish, tomoshabinlar e'tiborini jalb qilish bo'lgani uchun interaktiv ko'rsatuvlar siyosiy mavzuni rekreativ yo'nalishda ochib berishga qaratilgan. Studiyaning vizual bezatilishi, ya'ni rang va yorug'likning berilishi ham ko'ngilochar dasturlarga mos ravishda amalga oshiriladi. Siyosiy arboblarning bunday

loyihalarda qatnashishdan maqsad o'z saylovchilari bilan yaqinlashish, o'zini mashhur qilish, auditoriya vakillarida simpatiya uyg'otishdir. Ular ko'rsatuvda qatnashib tez tanilishadi, auditoriya bilan o'zaro muloqotga kirishishadi. Masalan, Ellen Dejenerisning shousida AQSh prezidentlari Bill Klinton, Jorj Bush, Borak Obama ishtirok etishgan. Jimmi Fellonning tunggi tok-shousida saylovoldi kampaniyasi arafasida Respublikachilar partiyasidan nomzod Donald Tramp Jimmi bilan respublikachilardan prezidentlikka nomzod bo'lganidan keyin vaziyat qanday o'zgargani haqida gapiradi (9). aktyor va mashhur kishilar qatorida taniqli siyosatchilar ommabop shoularda qatnashishlari, siyosiy mavzularni odamlarga oson va hammabop shaklda etkazilishiga o'z xissalarini qo'shadilar. Siyosiy sharhlar ko'ngilochar shaklda efirga beriladi. Teleefirdagi interaktiv muloqot siyosatchilar bilan tomoshabin orasida tafovutni keskin kamaytiradi, ularni ruhan yaqinlashtiradi. Satira va yumor orqali ruhiy yaqinlik hosil bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, horij auditoriyasiga siyosiy mavzudagi yumor va satira karikaturalar shaklida ham o'ziga xos tarixga egadir. Davlat hamda siyosat arboblari, ularning xatti-harakatlarini masxaromuz shaklda tasvirlash Evropa davlatlarida o'rta asrlardan boshlab keng ommalashgan bo'lib, bugungi kunda ham mutasaddi rahbarlarni satira qilish hurmatsizlik, etika me'yorlariga rioya qilmaslik sifatida baholanmaydi. Siyosiy sharj, siyosiy satira boshqa janrlar qatori televizion dasturlarda ham bevosita o'z aksini topib, interaktiv dasturlarda auditoriya ishtiroki bilan tayyorlanishi uning ommaviylashishi uchun zamin hozirladi. Albatta, bunda media biznes talablari ham hisobga olinadi. Odatda auditoriyaning jiddiy siyosiy dasturlarga nisbatan satira va yumorga qiziqishi katta. Shou boshlovchilarining mahorati ham jiddiy mavzularni tomoshabinga moslashtirib hazil shaklida berishida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda aytish kerakki, tomoshabin va mutaxassislar ishtirok etadigan interaktiv jarayonlar aks etadigan teleloyihalarda muallif va boshlovchi bo'lgan jurnalistning studiyadagi vazifasi o'zgaradi. Aksariyat holatlarda interaktiv teledasturlarda muallif, suhandon yoki boshlovchi emas, balki moderator vazifasini o'taydi. Jurnalistning jonli efirda moderator sifatidagi faoliyati qaysidir ma'noda uning studiyadagi nufuziga ham ta'sir qiladi. Chunki telekommunikasiya jarayonida jurnalist yakkamuallif, vaziyat egasi emas, unga auditoriya, tomoshabinlar, studiyaga taklif etilgan mutaxassislar hammualliflik qilishadi. Jurnalist bu vaziyatda jarayonning muvofiqlashtirib turuvchisiga aylanadi. "Ommaviy (odatda studiyadagi) ko'rsatuvlarning boshlovchisi o'z tabiatiga ko'ra shoumen bo'lishi kerak. Taklif etilganlar bilan muloqot qilish barobarida u barcha ishtirokchilarini umumiy suhbatga yo'naltirib, auditoriya uchun qiziq bo'ladigan mavzudagi muloqot hosil qilishi kerak. /.../Ma'lum bir guruh odamlari bilan muloqot jarayonida jurnalist bir vaqtning o'zida ham aktyor, ham tomoshabin bo'la oladi" (1). O'zaro ta'sirlanish jarayoni kechadigan interaktivlikka asoslangan teleko'rsatuvlarda moderator vazifasidagi jurnalist dasturning asosiy mavzusining muallifi bo'lib, uning tadrijiy davomidagi voqea-hodisalarning muvofiqlashtiruvchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Jarayonlar umumiy yo'nalishdan chiqib ketmasligida moderatorlarning mahorati bilinadi. Efirda u jarayonni kuzatib xulosa qiluvchi tomoshabin, u yoki bu vaziyatdan chiqib keta oladigan aktyor bo'lishiga to'g'ri keladi.

Interaktiv jarayonda studiyaga taklif etilgan kommunikasiya subektlari o'rtasidagi muloqotning boshlovchisi — interaktivlik natijasida davomli ijodiy jarayonning moderatoriga aylanadi. Interaktiv muloqotga

asoslangan teledasturlarni tahlil qiladigan bo'lsak, ularning nomlanishida ham boshlovchilarning ismi qayd etiladi. Masalan, Fil Donaxyu, Larri King, Opra Uinfri, Vladimir Pozner kabi jurnalist boshlovchilarning nomining o'zi teleloyiha brendiga aylanib, tok-shou muvoffaqiyatini asosini tashkil qilgan. Ular e'firda suflyordan matn o'qib beradigan suhandosh sifatida emas, balki o'z nuqtai nazari, ma'lum bir voqea-hodisaga nisbatan qarashlariga ega insonlar sifatida dunyoga tanilishgan, siyosiy, ijtimoiy, tahliliy yo'nalishdagi tok-shou dasturlarining ommalashuvida xissalarini qo'shishgan. Hozirda ham Amerikaning ommalashgan, reytingi baland bo'lgan interaktiv tok-shoulari ularning boshlovchilari nomi bilan ataladi. Bugungi kunda boshlovchi jurnalistlar teleloyiha brendi bo'lishi tabiiy holga aylangan.

Taniqli insonlar bilan yumor va satira shaklda muloqot qilib, auditoriyani o'ziga jalb qiladigan mashhur tok-shoulardan yana biri Turkiyaning "kanal D" tomonidan e'firda chiqqan "Beyazid Shou" (10)ni e'tirof etish mumkin. Telestudiyada moderator vazifasida faoliyat ko'rsatadigan Beyazid O'zturk boshchiligidagi mazkur tok-shou ham interaktiv usulda tayyorlanib, auditoriyaning faol ishtiroki nuqtai nazaridan ahamiyatlidir. Mazkur loyiha studiyada uchta kommunikasiya sub'ektlari vujudga kelib, studiya mehmonlari, auditoriya va boshlovchi jonli ijro etuvchi sozandalar yordamida interaktivlikka asoslangan musiqiy improvizatsiyani hosil qilishadi. Loyihada musiqa jonli e'firda yangraydi. Boshlovchi jurnalist ham erkin suhbatlashadi. Zamonaviy interaktiv dasturlar asosan muloqotga, auditoriyaning o'zaro kommunikatsiyasiga asoslanib, asosan dialogik janrlarning uyg'unligida bo'lishi bilan ahamiyatlidir. Osiyo mamlakatlari, jumladan, Turkiya telejurnalistikasida ma'rifiy, madaniy, musiqiy ko'ngilochar dasturlar nihoyatda ommalashgan. Evropa davlatlarida bo'lgani kabi siyosiy arboblarni satira yumor qilish, ularni masxaralash sharqona mentalitetga unchalik mos kelmasligi bunda ayondir. Sharq xalqlariga xos bo'lgan ichki madaniyat, nafis san'atning ekranda namoyon bo'lishi bilan musiqiy shoular tomoshabinni o'ziga jalb qiladi. Bu kabi ko'rsatuvlar shu bilan birga mamlakat madaniyatining targ'ibotiga ham o'z xissasini qo'shadi. Turk televideniyesi muvoffaqiyatlaridan biri sifatida e'tirof etilgan "muhtasham yuz yil" serialida ham Turkiyaning tarixini keng targ'ib qilish, ichki turizmni rivojlantirish, auditoriyaning bu davlatning o'ziga xosligini namoish etishga qaratilgan. Ya'ni, interaktiv dasturlar ham turk mediabiznesi orqali o'ziga xos ijtimoiy vazifani bajaradi.

Ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, mamlakat madaniyatiga qiziqishni oshiradigan dasturlar Yaponiya, Xitoy telejurnalistikasi qatori Koreya mutaxassislari tomonidan ham tayyorlanadi. Koreyaning ma'rifiy-madaniy yo'nalishdagi *한류* "Koreya to'liqini" (Xallyu) (11) rekreativ tok-shousi ham Osiyo mintaqasida nihoyatda tanilib, koreys madaniyatini targ'ibotini amalga oshiruvchi interaktiv shou sifatida diqqatga sazovor. Mazkur teleloyihada dasturning tadrijiy davomini studiyadagi auditoriya hamda tomoshabinlar hal qilib, loyiha bevosita fikr bildirish, o'zaro ta'sirlanish asosida davom etadi. Turkiya hamda Koreyada e'firda uzatiladigan interaktiv shoular madaniy-ma'rifiy yo'nalishda tayyorlanishi kommunikatsiyaga asoslanib musiqiy kompozitsion echimga egaligi bilan farqlanadi. Amerikalik tomoshabinlar e'tiboriga havola qilinadigan interaktiv loyihalar bilan bu kabi dasturlarning o'xshash jihatlari shuki, barcha loyihalar asosan ko'ngilochar mavzuda tayyorlanib, tomoshabinning relaksatsiyasi uchun xizmat qiladi. Amerikaliklarning mashhur shoularida siyosatga urg'u berilishi kuzatilsa, koreys va turk

shoularida tomoshabinlarni kuylashga, musiqiy hordiq chiqarishga undovchi interaktiv loyihalar efirga beriladi. Raqamli muhitning ommalashishi mazkur shoularning ishlab chiqaruvchi davlat chegaralaridan chiqib, internetda katta hajmdagi foydalanuvchilar e'tiboriga havola qilinishiga zamin yaratdi. Mazkur shoular hozirda ko'plab tillarga tarjima ham qilinadi. Publisistik materiallardan farqli o'laroq, interaktiv ko'ngilochar teleloyihalar, badiiy asar yoki mashhur musiqa kabi, vaqt o'tgach ham muxlislarning e'tiborini tortishi diqqatga sazovordir. Turkiya hamda koreys ijodkorlari musiqa san'ati bilan telejurnalistikaning uyg'unligidan keng foydalanishadi. Musiqa tomoshabinning ong ostiga, hissiyotlariga ta'sir qiladi. Sharq xalqlarida musiqaning kundalik turmushdagi o'rnini, ahamiyati ham bo'lakcha. Ahamiyatlisi, yuqorida keltirilgan dasturlarda milliy musiqa tarannumi qilinib, milliy madaniy o'ziga xoslik sifatida tomoshabinlarga taqdim etiladi. Bunday interaktiv shoular milliy musiqiy madaniyatning efir orqali yanada ommalashtirish, qadriyat sifatida ijtimoiy hayotda o'z o'rniga ega bo'lishida muhim o'rin tutadi. Aynan shu jihat bilan — siyosiy satira shakldagi Amerika tok-shoularidan farqlanadi.

Interaktiv tok-shoular butun dunyoda ommalashuvi ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy, madaniy ahamiyati bilan bir qatorda, albatta, iqtisodiy omillari ham mavjud. Chunki media biznes sharoitida teleloyihaning davriyligi mavjud bo'lishining asosiy zaminini iqtisodiy unumdorligiga bevosita bog'liq. Mutaxassislar interaktiv shoularning muvoffaqiyati sifatida ularning jonli tarzda efirga berilishini alohida ta'kidlashadi. Oldindan studiyada yozib olish, keyin montaj qilib efirga berishga nisbatan ko'rsatuvni jonli tarzda taqdim etilishi iqtisodiy jihatdan manfaatli bo'ladi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha: "iqtisodiy xususiyat bunda ustunlik qilib, jonli efir ko'rsatuvning harajatlarini ancha kamaytiradi. Jonli efir uchun tayyorlanadigan alohida lavhalarini hisobga olmaganida umumiy ko'rsatuv uchun montaj amalga oshirilmaydi"(4), ma'lumki, an'anaviy usulda avvaldan yozib olinib, montajdan so'ng efirga beriladigan ko'rsatuvlarda katta hajmdagi vaqt montajga sarflanadi. Shu bilan birga studiyada yozib olishga ham bir muncha ko'p vaqt ketadi. Bunda - texnik jihozlar, studiya ekspluatatsiyasining vaqti, ijodiy jamoaning xodimlarining ish kuchi ko'p sarflanishini nazarda tutadi. Interaktiv dasturlarda loyihalar efir vaqti uchun mo'ljallangan vaqtda davom etadi, yaxlit ko'rsatuv uchun montaj amalga oshirilmaydi. Teleindustriyada iqtisodiy, moliyaviy faktor loyihaning efirga ketishining muhim xususiyati ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, jonli efirdagi interaktiv loyihalar samaradorligi yuqoriligini ta'kidlash mumkin. Shu bilan birga, jonli efirda auditoriyaning interaktiv ishtiroki ko'rsatuv reytingini oshirib, homiylarni jalb qilishda ham muhim rol o'ynaydi.

Natijalar va muhokamalar. Zamonaviy axborot texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o'tgan asr oxirlarida televidenie va kompyuter texnologiyalar uyg'unligidagi ITV, ya'ni interaktiv televidenie — rivojlangan davlatlarda keng ommalashadi. Bunda tomoshabin teleko'rsauvlarni istalgan vaqtda va joyidan ko'rish, loyihalar bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish kabi televidenie xizmatlar qatori biznesga xos bo'lgan harid qilish kabi xizmatlardan ham foydalanishadi. Itvni mutaxassislar auditoriyaga moslashadigan televidenie sifatida e'tirof etishadi. Aholi asosan axborot kommunikatsiya sohasida band bo'lgan davlatlarda televideniening bunday funktsiyasining ommalashuvining texnik progress sifatida ahamiyati kattadir. Auditoriya bevosita axboriy kontent va ko'rsatiladigan xizmatlarning buyurtmachisi bo'ladi. Unga

qator qulayliklar paketi taqdim etiladi. Bu holatda yuqori texnologik taraqqiyot mahsuli bo'lgan interaktiv televideniening ijtimoiy ahamiyati yuqori bo'lmaydi. Chunki auditoriya vakili bo'lgan tomoshabin yakka individ, foydalanuvchi sifatida o'zining axborot olish ehtiyojlarini interaktiv televidenie orqali qondiradi, holos. Uning talablari jamiyatdagi jarayonlarga ta'sir qilmaydi. Mutaxassislar telejurnalistikaning interaktivligiga bir muncha yuqori talablarni qo'yishadi. Fuqarolik jurnalistikasi ko'rinishi sifatida taraqqiy etayotgan ijtimoiy jurnalistika bunga yaqqol misol bo'la oladi. Reklama, homiylardan keladigan tushumlardan holi bo'lgan, tomoshabinlar to'lovlari asosida faoliyat ko'rsatadigan ijtimoiy telekanallar faoliyati jamiyatda telejurnalistikaning ahamiyatini oshiradi. Kimningdir manfaatlariga xizmat qiluvchi siyosiy targ'ibotga xizmat qiladigan OAV emas, balki oddiy auditoriya vakilining qiziqish va manfaatlarini himoya qiluvchi ijtimoiy kanallar faoliyati jurnalistikaning xolislik, haqqoniylik tamoyillariga to'la mos keladi. Ana shunday kanallar qatoriga Buyuk Britaniyaning mashhur VVS kanali faoliyatini misol keltirish mumkin. Tijoriy telekanallardan farqli o'laroq VVS kanallarida iqtisodiy manfaat ko'zlanmay ishlab chiqariladigan televizion material demokratik jamiyat talabi bo'lgan — so'z erkinligi, oshkoralik, xolislikka tamoyillariga to'la mos keladi. Telejurnalistikaning interaktiv jarayonlarida ham ana shunday maqsad ko'zlanadi. Ya'ni, telejurnalistikadagi interaktivlik ijtimoiy televideniening taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Aksariyat mutaxassislar televideniening interaktivlik xususiyatlari interaktiv televidenie (ITV) ning texnik qulayliklariga nisbatan kengroq ekanligini ta'kidlashadi. Bevosita auditoriyaning efirda material tayyorlash jarayoniga bo'lgan ta'siri bilan namoyon bo'ladigan interaktivlik televideniening ijtimoiy ahamiyatini oshiradi. Bunda tomoshabinlar buyurtmachi, foydalanuvchi emas, balki interaktiv jarayonning bevosita tashkilotchisi, muloqotning ishtirokchisi sifatida namoyon bo'lishadi, efirda fikr, munosabatini bildirib, qarashlarini ifoda etib, jurnalistga hammualliflik qilishadi. Auditoriya ovoz berish, telefon qo'ng'iroq orqali ulanish, studiyada ishtirok etish kabi ta'sir qilish usullari qatorida o'zi tayyorlagan videomahsulotlarini tahririyatlarga yuborish orqali ham televideniedagi interaktiv jarayonlarga bevosita ta'sir qiladi. Zamonaviy telejurnalistikadagi mediabiznes sharoitida auditoriyani jalb qilish usuli sifatida Interaktivlikning ahamiyati ortmoqda.

Xulosa. Ahamiyatlisi, ilmda ijodiy jarayonning uzluksizligi borasidagi nazariya mavjud bo'lib, unga ko'ra, ijod mahsuli yaratilib muxlislar e'tiboriga havola qilinganida uning ta'sir jarayonlari yakunlanmaydi. Asarning keyingi hayoti ta'sirlanish natijasida yana davom etadi. Shu qarashlar televideniedagi interaktiv jarayonlarga ham taaluqlidir. Chunki, har qanday asarda bo'lgani kabi telejurnalistik material ham ijod mahsulidir. Televizion ko'rsatuv tayyorlanishidagi interaktiv jarayonlar bilan bir qatorda, loyiha efirga berilganidan keyin auditoriya tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarning ham ta'siri mavjud. Interaktivlikka asoslangan dasturlar jahon tajribasida turli yo'nalishlarda rivojlandi. Masalan, siyosiy sharhga asoslangan interaktiv tok-shoular rossiyalik mutaxassislar tomonidan muntazam efirga beriladi. Bunda studiyaga taklif etilgan mutaxassislar bir yoki bir nechta siyosiy voqealaraga o'z munosabatlarini bildirib, o'zaro suhbat, fikr almashish shaklida jarayonlarni sharhlashadi. Auditoriya bu loyihalarda telefon qo'ng'iroqlari orqali ulanib ishtirok etishlari mumkin. Ko'rsatuvlar jiddiy ruhda olib boriladi. Ahamiyatlisi, bu tok-shoular yurtimizda tayyorlanadigan siyosiy ijtimoiy tok-shoular bilan shaklan o'xshash. Sobiq

Sovet davlatlari propaganda vositasi sifatida shakllangan umumiy jurnalistika maktabi asosida rivojlangani uchun interaktiv siyosiy tok-shoular yoʻnalishlarida oʻxshashlik mavjud. Mavzular asosan davlat siyosati manfaatlari nuqtai nazaridan sharhlanishi rossiyalik dasturlarning oʻziga xosligini namoyon qiladi. Amerikalik ijodkorlarning interaktiv tok-shoularda siyosiy mavzudagi tok-shoular asosan satira va yumor shaklida taqdim etilib, siyosiy arboblarni auditoriyaga ruhan yaqinlashtirish, ularni jamoatchilikka tanishtirish vazifasini oʻtaydi. Bunda jurnalistlar emas, asosan komik aktyorlar boshlovchilik qilishadi. Deyarli barcha davlat rahbarlari televizion tok-shoularda qatnashib, tomoshabinlar bilan kommunikasiyaga kirishganlarida interaktiv dasturlar oddiy auditoriyani mutasaddi rahbarlar bilan yaqinlashtiradigan koʻprik vazifasini oʻtashini koʻrishimiz mumkin. Bu kabi loyihalar asosan rekreativ yoʻnalishda tayyorlanib taqdim etilishi Interaktivlikning koʻngilochar xususiyatiga misol boʻladi. Osiyo mintaqasidagi interaktiv tok-shoular asosan maʼrifiy, madaniy, taʼlimiy yoʻnalishda tayyorlanishi bilan ahamiyatlidir. Turk shousi bilan koreysi ijodkorlari tomonidan dunyoga mashhur musiqiy madaniy interaktiv tok-shoular bunga misol boʻla oladi. Ular ham asosan rekreativ yoʻnalishda tayyorlansa-da, dialogik kommunikasiyaga emas, musiqiy-maʼrifiy audial muloqotga asoslanishi bilan diqqatga sazovor. Mazkur loyihalar mamlakat madaniyatiga qiziqishni oshirib, ichki turizmni rivojlantirishda oʻz xissasini qoʻshishi bilan Osiyo mintaqasidagi televideniadagi interaktivlik jarayonining oʻziga xosligini belgilab beradi.

Zamonaviy interaktiv kontentning keng miqyosda rivojlanishini belgilovchi omillaridan biri, jonli efirda loyiha tayyorlashning kamharjligi va auditoriyani oʻziga jalb qilishidir. Bunda tasvirga olish, montaj qilish jarayonlariga anʼanaviy usulda dastur tayyorlashga nisbatan kam vaqt talab qilishi bilan texnik jarayonlarga hamda xodimlarga toʻlanadigan qalam haqida ham harajatlarni kamaytiradi. Bu esa, mediabiznes sharoitida rivojlanayotgan telejurnalistika sohasida Interaktivlikning keng miqyosda ommalashishi uchun zamin hozirlaydi. Umuman olganda, axborot zamonida auditoriya ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotga nihoyatda koʻp vaqtni sarflab, kommunikasiya ijtimoiy hayotning ajralmas qismiga aylangan. Televidenie ham asosan kommunikasiyaga asoslangan dasturlari bilan tomoshabinlarni oʻziga jalb qila olyapti. Turli yoʻnalish, shakl va janrlarda jahon miqyosida interaktivlikka asoslangan dasturlar taraqqiy etib ommalashyapti. Auditoriya passiv axborot qabul qiluvchi emas, axborot tayyorlash, tarqatishda faol individga aylangan. Auditoriyaning munosabati ijtimoiy jarayonlarga taʼsir qilib, jamoatchilik nazorati sifatida oʻz ahamiyatini oshirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Игнашов А. В. Специфика работы телеведущего-модератора // Система ценностей современного общества. — 2010. — №15. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/spetsifika-raboty-televeduschego-moderatora> (дата обращения: 07.03.2022).
2. Исмаилова К.Ф. Интерактивное вещание: опыт радиостанций Узбекистана. // Ўзбекистонда хорижий тиллар, — 2021, — № 5(40), — Б. 114-123. — URL: <https://journal.fledu.uz/ru/interaktivnoe-veshhanie-opyt-radiostancij-uzbekistana/>
3. Лески К. Креативный шторм: позволь себе создать шедевр: нестандартный подход для успешного решения любых задач. — М.: «Э», 2018 — 240 с.

4. Ятчук.О.М. Интерактивный контент современного ТВ.
<http://jurnal.org/articles/2013/fill11.html>
5. <https://amdg.ru/blog/new-media>
6. <https://www.youtube.com/watch?v=tySzWR9sVG8>
7. <https://www.youtube.com/watch?v=sKDHedsVA94>
8. <https://youtu.be/ht1ZnXiBc0>
9. https://www.youtube.com/watch?v=SPh_raqO_A0
10. <https://youtu.be/onVwk5iytm8>
11. <https://www.youtube.com/watch?v=6aG1AOvkecc>

References

1. Ignashov A. V. *Sistema tsennosti sovremennogo obshchestva*, 2010, No.15, available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/spetsifika-raboty-televyushego-moderatora> (March 07. 2022).
2. *Uzbekistonda khorizhii tillar*, — 2021, — № 5(40),— pp. 114-123, available at: <https://journal.fledu.uz/ru/interaktivnoe-veshhanie-opyt-radiostancij-uzbekistana/>
3. Leski K. *Kreativnyi shtorm: pozvol' sebe sozdat' shedevr: nestandartnyi podkhod dlya uspehnogo resheniya lyubikh zadach* (Creative storm: allow yourself to create a masterpiece: a non-standard approach for the successful solution of any tasks), Moscow, 2018. 240 p.
4. Yatchuk.O.M. *Interaktivnyi kontent sovremennogo TV*, available at: <http://jurnal.org/articles/2013/fill11.html>
5. <https://amdg.ru/blog/new-media>
6. <https://www.youtube.com/watch?v=tySzWR9sVG8>
7. <https://www.youtube.com/watch?v=sKDHedsVA94>
8. <https://youtu.be/ht1ZnXiBc0>
9. https://www.youtube.com/watch?v=SPh_raqO_A0
10. <https://youtu.be/onVwk5iytm8>
11. <https://www.youtube.com/watch?v=6aG1AOvkecc>